

TA`LIM JARAYONINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA TA`LIM JARAYONI AHAMIYATI

Kattaqo'rg'on davlat instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi

haqberdiyeva-dinora@katdpi.uz

Kattaqo'rg'on davlat Pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi talabasi

Safarov Xalil Sherah o'g'li

Safarovxalil196@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining maqsad va vazifalari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlash, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish darajasini baholash, pedagogik metod va yondashuvlarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda diagnostika jarayonining tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, tahlil qilish va optimallashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Natijada tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish uchun diagnostikaning muhim pedagogik vosita ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy faoliyat, diagnostika, pedagogik jarayon, ta'lim samaradorligi, tarbiyaviy metodlar, individual yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели и задачи диагностики воспитательной деятельности, её значение и роль в образовательном процессе. Также анализируются вопросы оценки уровня личностного развития учащихся, повышения эффективности воспитательной работы и совершенствования педагогических методов и подходов. В исследовании научно обоснована роль

диагностики в планировании, анализе и оптимизации воспитательного процесса. В результате показано, что диагностика является важным педагогическим инструментом для эффективной организации воспитательной деятельности.

Ключевые слова: воспитательная деятельность, диагностика, педагогический процесс, эффективность образования, воспитательные методы, индивидуальный подход.

Annotation: This article discusses the goals and tasks of diagnosing educational activities, as well as its role and importance in the educational process. The study analyzes the assessment of students' personal development, the effectiveness of educational work, and the improvement of pedagogical methods and approaches. The research scientifically substantiates the importance of diagnostic processes in planning, analyzing, and optimizing educational activities. As a result, it is shown that diagnostics serves as an important pedagogical tool for improving the effectiveness of educational processes.

Keywords: educational activity, diagnostics, pedagogical process, educational effectiveness, teaching methods, individual approach.

KIRISH: Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Tarbiya natijasi barkamol shaxsni tarbiyalash bo'lsa, bu jarayonni amalga oshirishda uni diagnostika qilish shart va zarur jarayon hisoblanadi.

Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining nazariy-asosiy tushunchalari ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan qator tamoyillar va nazariy landshaftni o'z ichiga oladi. Bu tushunchalar pedagogik nazariya va amaliyot nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan bo'lib,

tarbiya jarayoni samaradorligini baholash, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini aniqlash va yo'naltirish imkonini beradi.

Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi, avvalo, o'quvchilarning individual xususiyatlari, shaxsiy ehtiyojlari hamda qobiliyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda diagnostika metodlari va vositalari muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash pedagoglar uchun zaruriy hisoblanadi, chunki bunda o'quvchilarga mos keluvchi ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

Tushuncha asosida metodologik yondashuvlar yotadi, bu esa diagnostikani o'tkazishda qollaniladigan tamoyillarni, usullarni, vositalarni belgilaydi. Tarbiyani rejali va tizimli tashkil etish uchun diagnostika jarayonida analitik va sintez yondashuvlarini qo'llash muhimdir. Bunda o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini aniqlash uchun ko'plab metodlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning tarbiyaviy jarayondagi ehtiyojlariga mos tarzda qo'llaniladi. Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasida o'quvchi shaxsini har tomonlama o'rganish, uning tabiatini anglash va rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu yondashuvning asosida ko'plik tamoyil turadi: o'quvchilarning rivojlanishidagi individual farqlarni hisobga olish, ularning qiziqishlari, narsalarga bo'lgan munosabatlarini o'rganish va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilishning turli xildagi usullari va vositalari mavjud bo'lib, ular orasida kuzatish, suhbat, test va so'rovnomalar alohida o'rin tutadi. Har bir usul o'zining afzallik va kamchiliklariga ega va ular pedagogning maqsadlariga qarab tanlanadi. Kuzatish jahdan tashqi faoliyatni tahlil qilib beradi, suhbat esa o'quvchilarning ichki dunyosini anglashga yordam beradi. Test va so'rovnomalar esa o'quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatlarini metodik baholashga mo'ljallangan. Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining muhim tamoyillaridan biri bu o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashdir. Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy muhitda mustaqil faoliyat ko'rsata olishi o'quv-tarbiya jarayonida shakllanadi. Yana bir nazariy asos sifatida, o'quvchilarning turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Bu esa, o'z navbatida, diagnostikaning

pedagogik jarayonlar bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi va ta‘lim jarayonidagi ahamiyatini oshiradi. Turli o‘quvchilarning rivojlanishidagi farqlarni o‘rganish va inobatga olish zarur, chunki bu har bir o‘quvchining individual rivojlanish yo‘nalishini shakllantirish imkonini beradi. Diagnostika o‘quvchilarning o‘z o‘zini anglash, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi mexanizm sifatida ta‘lim tizimida yuksak o‘ringa ega. Shuningdek, diagnostikaning nazariy-asosiy tushunchalaridan biri bu tarbiyaviy jarayonlar va pedagogik faoliyatning natijalarni o‘lchash qobiliyatidir. Har bir o‘quvchi uchun individual rivojlanish trajektoriyasini belgilash, ularni motivatsiyalash va ularning muvaffaqiyatlarini baholash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Diagnostik natijalar asosida o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularga yordam ko‘rsatish va o‘zlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish mumkin.

Yana bir nazariy asosiy tushuncha bu o‘qitish va tarbiya jarayonidagi sistemaviylikdir. O‘quvchilarning tarbiyaviy jarayondagi ishtirokini rejalashtirishda diagnostik tahlillar muhim o‘rin tutadi. Bunda jarayonning tarkibiy qismlari: maqsadlar, mazmun, usullar, natijalar va baholar bir butun tizim sifatida qaraladi. Bu tizim o‘quvchilarni qiziqtiradigan holatlarni o‘rganish va ularga mos metodik vositalarni tanlashga imkon beradi.

Shunday qilib, tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining nazariy-asosiy tushunchalari o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta‘minlashda, ta‘lim jarayonini yanada samarali va maqsadli tashkil etishda yordam beradi. Ular pedagogik nazariya va amaliyotning uzviy qismi sifatida, zamonaviy pedagogika oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim poydevor hisoblanadi. Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi ta‘lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik asoslar to‘plamidir. Bu jarayon o‘qituvchi va ta‘lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, o‘quvchilarni tarbiyalash va ta‘lim berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvlarni qamrab oladi. Tarbiyaviy diagnostika boshqaruv jarayoni sifatida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutadi va ta‘lim

jarayonining boshidan oxirigacha bo'lgan har bir bosqichda qo'llanilishi kerak. Tarbiyaviy diagnostikalarning prinsiplari bir necha tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

1. Maqsadga yo'naltirilganlik prinsipi. Tarbiyaviy diagnostika aniqlangan maqsadlarga erishishni ta'minlash uchun aniq va aniq ta'riflangan maqsadlarni talab qiladi. Ta'lim jarayonida asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning intellektual va axloqiy qirralarini rivojlantirishdir. Shu tufayli, diagnostika jarayoni bu maqsadlarga qanday erishish mumkinligini o'rganish va baholashga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Sistemalilik va tahliliylik prinsipi. Tarbiyaviy diagnostikaning bu tamoyili har bir o'quvchining shaxsiy o'ziga xosligini, ularning mahorati va qobiliyatlarini har tomonlama o'rganish va baholashni o'z ichiga oladi. Bu prinsip asosida barcha harakatlar tizimli va muntazam ravishda amalga oshiriladi, ularning natijalari tahlil qilinadi va tarbiyaviy jarayon rivojlantiriladi.

3. Ob'ektivlik va haqqoniylik prinsipi. Diagnostika jarayoni haqiqatga mos kelishi va ob'ektiv ma'lumotlarga asoslanishi lozim. Bunda har qanday o'quvchining imkoniyatlari to'g'ri baholanishi kerak, hech qanday tarafkashlikka yo'l qo'yilmaydi. Bu, o'z navbatida, tarbiyaviy samara va ta'lim jarayonini bir qadam yuqoriga olib chiqishga yordam beradi.

4. O'zgaruvchanlik va moslashuvchanlik prinsipi. Ta'lim jarayoni mobaynida o'quvchilar va o'qituvchilar tomonidan kiritiladigan o'zgarishlarni tezda amalga oshirish qobiliyati juda muhim. Diagnostikaning elastikligi shundan iboratki, uning parametrlarini o'quvchilarning ehtiyojlari va ta'lim jarayonining talablariga mos ravishda o'zgartirish mumkin.

Tarbiyaviy diagnostika, shuningdek, pedagoglik prinsiplarga ham asoslanadi, bu esa pedagogik jarayonni samarali boshqarishga xizmat qiladigan yondashuvlardir. 1. Didaktik prinsiplar. Bu prinsiplarga ko'ra, ta'lim va tarbiya jarayoni didaktik asoslarda tashkil qilinishi kerak. Har bir dars va faoliyat o'zining didaktik vazifalarini aniq belgilagani, ular doirasida amalga oshirilishi shart.

2. Individuallashtirish prinsipi. Ta'lim va tarbiya har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Shaxsiy yondashuv orqali har bir o'quvchi bilan alohida ishlash, ularni o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga sharoit yaratish muhimdir.

3. Motivatsion prinsip. O'quvchilarni o'qishga va rivojlanishga undash, ularni ichki va tashqi rag'batlantirish orqali bilim olish jarayoniga jalb qilish muhimdir. Bu prinsipning maqsadi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini kengaytirish va ularni ijobiy natijalarga yo'riq qilishdir.

Tarbiyaviy diagnostikaning pedagogik asoslari va prinsiplari orqali ta'lim jarayonining har tomonlama rivojlanishi, o'quvchilarning intellektual va axloqiy darajasining oshishi ta'minlanadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalashning samarali asoslaridan biri hisoblanadi.

"Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasida maqsad va vazifalar" tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining muhim yo'nalishidir. Tarbiyaviy faoliyatning diagnostikasi bu ta'lim jarayonida tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri baholash, boshqarish va rivojlantirish uchun ma'lumotlar yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. Ushbu jarayonda bir nechta maqsad va vazifalar belgilangan bo'lib, ular tarbiyaviy faoliyatni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

1. Tarbiyaviy natijalarni baholash: Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining asosiy maqsadi o'quvchilar, talabalar yoki tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasini aniq baholashdan iborat. Bu, o'z navbatida, tarbiyaviy jarayonning samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

2. Faoliyat samaradorligini tahlil qilish: Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi ta'lim jarayonida qo'llanilgan uslub va metodlarning qanchalik samarali ekanini tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu orqali ta'lim beruvchilar tarbiyaviy maqsadlariga qanchalik yaqinlashayotganlarini bilib oladilar.

3. Tarbiyaviy jarayonni optimallashtirish: Olingan natijalar asosida tarbiyaviy jarayonni keyingi bosqichlarda yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu o'z navbatida tarbiyaviy maqsad va vazifalarga erishishga yordam beradi.

Vazifalar esa quyidagilardan iborat:

1. Ma'lumot yig'ish: Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasining birinchi vazifasi turli xil manbalardan (masalan, kuzatishlar, so'rovnomalar, suhbatlar va boshqalar) diagnostika uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ishdir. Bu ma'lumotlar asosida ta'lim va tarbiyaviy strategiyalar shakllantiriladi.

2. Tahlil qilish va baholash: Moddiy va nomoddiy natijalarni tahlil qilish orqali har bir o'quvchi yoki tarbiyalanuvchining individual rivojlanish darajasi baholanadi. Bu orqali ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi.

3. Dasturiy tavsiyalar ishlab chiqish: O'qituvchilar va pedagoglar olinayotgan natijalar asosida tarbiyaviy jarayon uchun dasturiy yondashuvlarni takomillashtiradi. Bu jarayonda olingan ma'lumotlar asosida maxsus dasturlar tuzilib, ularning tarbiyaviy maqsadlarga mosligiga e'tibor beriladi.

4. Individual yondashuvni rivojlantirish: Har bir tarbiyalanuvchi bilan individual ishlash masalasiga e'tibor qaratiladi. Ularning ehtiyoj, imkoniyat va qiziqishlarini inobatga olib ishlovchi pedagogik texnologiyalar va usullar tanlanadi.

5. Xatolarni aniqlash va tuzatish: Tarbiyaviy faoliyatda yuz beradigan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni belgilash. Bu kelgusida tarbiyaviy faoliyatning yanada samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

6. Tarbiyaviy model va metodlarni moslashtirish: Olingan natijalar asosida ta'lim jarayonidagi metod va modellarni yangi sharoitlarga moslashtirish orqali yondashuvlarni yangilash.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi ta'lim jarayonida nafaqat o'qituvchilar, balki talabalarning ham rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Diagnostika

maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi bu jarayonning pedagogik samaradorligini oshiradi. Olingan ma'lumotlar asosida ta'lim jarayonini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va tarbiyaviy maqsadlarga osonlik bilan erishish mumkin bo'ladi. Shu bois, diagnostika yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda ham asos sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
2. Avliyakov, N. X., & Musayeva, N. N. (2012). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Tolipov, O' Q., & Usmonboyeva, M. (2014). Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
4. Slastenin, V. A., Isayev, I. F., & Shiyonov, E. N. (2012). Pedagogika. Moskva: Akademiya.
5. Davletshin, M. G. (2010). Umumiy pedagogika. Toshkent: O'qituvchi.